



Introductory Words in Alisher Navoi's Ghazals

Mardon RAKHMATOV¹

Alfraganus university

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 Desember 2025

Keywords:

poetry,
introductory word,
poetic syntax,
syntactic form,
subjective attitude,
stylistic color,
expression.

ABSTRACT

Introductory words play an important role in the organization of a lyric text. Along with other linguistic units of the lyric text, they occupy a special place in its rhythmic, intonational, and semantic structure. The lexemes analyzed in this article, considered introductory words, were identified and examined based on their grammatical features inherent to introductions used in the composition of a poetic work, their syntactic status, and their relationship with other syntactic forms.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6-pp35-40>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Alisher Navoiy g'azallarida kirish so'zlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

she'riy asar,
kirish so'z,
she'riy sintaksis,
sintaktik shakl,
subyektiv munosabat,
uslubiy bo'yoqdorlik,
ekspressiya.

Kirish so'zlar lirik matnning tashkil qilinishida muhim o'rin tutadi. U lirik matn tarkibidagi boshqa til birliklari qatorida matnning ritmik, intonatsion, semantik tuzilishida muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada tahlilga tortilgan va kirish so'zlar sifatida baholangan leksemalar she'riy asar tarkibida qo'llanib kirish so'zlarga xos grammatik xususiyatlarga ega bo'lishi, sintaktik maqomi va ularning boshqa sintaktik shakllarga munosabatiga qarab ajratildi.

¹ DSc, Acting Professor, Department of Oriental Philology, Alfraganus university. E-mail: mardonrahmat@gmail.com

Вводные слова в газелях Алишера Навои

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

поэтическое
произведение,
вводное слово,
поэтический синтаксис,
синтаксическая форма,
субъективное отношение,
стилистическая
красочность,
экспрессия.

Вводные слова играют важную роль в организации лирического текста. Они занимают важное место в ритмической, интонационной и семантической структуре текста наряду с другими языковыми единицами в составе лирического произведения. Лексемы, проанализированные в данной статье и оцененные как вводные слова, были классифицированы в зависимости от их грамматических особенностей, характерных для вводных слов, их синтаксического статуса и отношения к другим синтаксическим формам в составе стихотворного произведения.

KIRISH

Ma'lumki, gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar sirasiga kirish so'z va kiritma gaplar ham kiritiladi. Kirish so'zlar gapda ifodalangan obyektiv mazmunning ustiga so'zlovchining subyektiv qarashlari bilan bog'liq modal mazmun munosabatni qo'shuvchi semantik kategoriya sanalib, juda katta uslubiy, ekspressiv-emotsional imkoniyatlarga ega. Kirish so'zlar orqali so'zlovchi o'zi bayon qilayotgan fikriga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalaydi. Bu subyektiv munosabat bayon qilinayotgan obyektiv voqea-hodisaga tasdiq, shubha, taxmin, ishonch, istak va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Kirish so'zlarning asosiy sintaktik xususiyati alohidalik, ya'ni gap tarkibidagi boshqa bo'laklar bilan sintaktik aloqa kirisha olmasligidadir.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida modal so'zlar R.A. Komiljonov, S. Saidovlar tomonidan o'rganilgan [5: 22]. Tarixiy manbalarda qo'llangan kirish so'zlar maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan, lekin prof.S.Ashirboyev ishlarida atroflicha yoritilgan. O'zbek tilining sintaksisni o'rganishga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlar grammatik modal so'zlar sifatida qaraluvchi so'zlar gap sintaksisida so'z-gap mavqeida [1: 47-57] kela olishi yoki ularni gapning uchunchi darajali bo'lagi sifatida baholash kerakligi haqidagi qarashlar ham mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlillarda-da analiz, sintez, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, sintaktik-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alisher Navoiyning barcha tur asarlarida kirishlarni uchratish mumkin: ham nasriy, ham nazmiy asarlarida. She'riy asarda kirish so'zlarning qo'llanishi o'ziga xos bo'lib, bu albatta, shoirning mahorati bilan bog'liq. Xususan, shoir kirish so'zlarni o'zining poetik maqsadlarini ochishda, poetik obraz yaratishda, shuningdek, kuchli emotsiya va ekspressiyani yuzaga chiqarishda ulardan mahoratli foydalangan. Shuningdek, lirik asarlarda kirish so'zlar oddiy so'zlashuv nutqda bo'lgani kabi muallif o'zining bayon qilayotgan fikriga – lirik axborot (yoki lirik kechinmalar)ga munosabatini ifodalash uchun qo'llangan, lekin ular ko'p hollarda maxsus ritm, hissiy tus berish va lirik qahramon (lirik subyekt) qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi. Ular fikrning ishonchliligi darajasini, fikrning tartibini, hissiy reaksiya va boshqa subyektiv holatlarni ko'rsatadi. Shuningdek, lirik asarlarda kirish so'zlarning roli yanada yorqinroq bo'lishi, masalan, subyektiv baho ifodalashi yoki og'aki nutqqa xos intonatsiyani yaratishini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Ma'lumki, tilshunoslik ilmda kirish so'zlar ikki turga ajratiladi: sof kirish so'zlar va kirish so'z vazifasida qo'llanuvchi mustaqil ma'noli so'zlar. G'azallar matnida qo'llangan kirish so'zlarni ham shu tarzda ikki toifaga ajratib o'rganish o'rinli. Masalan, g'azallar matnida qo'llangan *albatta*, *alqissa*, *filmasal* kabi o'ndan ortiq o'zlashma so'zlar mavjudki, ular g'azallar matnida asosan modal ma'no ifodalashga xoslangan.

Albatta. *Albatta* kirish so'zi bayt tarkibida qo'llangan jumalarga tasdiq, ishonch ma'nosini qo'shadi, ba'zan ulardan biri ustun darajada bo'lishi, ba'zan tasdiq emas, qat'iy ishonch ma'nosi bo'rtib turadi:

Emas paykonining ravshanlig'idin bu ko'ngul aksi

Har o'qkim, ul otar ko'nglum erur, albatta paykonda. (G'S 529)

Albatta kirish so'zi she'riy matnning aksariyat o'rinlarida *kerak* so'zi bilan qo'llangan. Bunday gaplarda kirish so'zdan anglahiladigan ishonch yoki tasdiq ma'nosi yanada kuchli ifodalanadi. Quyidagi bayt kuchli ishonch ma'nosi anglashiladi:

Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini

Kerak, *albatta*, xazon elin sog'insang gohlar. (G'S 149)

Alqissa. Arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida *xulosa*, *hikoyamizga kelsak*, *xullas*; *shunday qilib* [3:43] kabi ma'nolarni ifodalaydi. U Alisher Navoiyning tarixiy asarlarida fikrning shu gapdan oldingi gapda ilgari surilgan fikr natijasi ekanligini ko'rsatish uchun qo'llangan [3: 43]. Mazkur shakl g'azallar matnida ham uchraydi. Quyidagi baytda *alqissa* so'zi – *xullas* kirish so'zi ifodalagan ma'noga to'g'ri keladi.

Dema roviy erur Farhodu Majnun qissasi muhlik

Ani *alqissa* bir dol-u alif bil dostonimdin. (G'S 493)

Filmasal. Arabcha so'z bo'lib, klassik matnlarda ko'proq *masalan*, *misol uchun* [3: 638] kirish so'zlar ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan.

Shodlig'din jon nisor etsam, ne tongkim, bu xabar

Ham ko'nguldin, *filmasal*, ham ko'nglum olg'andin kelur (G'S 114).

Barmog'i hayrat bilakim la'li xandon ichradur,

Ul alif yanglig'dururkim, *filmasal* jon ichradur (G'S 165).

Ba'zi o'rinlarda *filmasal* kirish so'zining ma'nosi *go'yoki* kirish so'zi ma'nosiga ham to'g'ri keladi:

Nildin gulgun uzoring bog'ida har sari xol,

Nilufar gulshan aro har yon ochilmish *filmasal*. (GS 375)

Filjumla. Arabcha so'z. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *jumladan* modal so'zining arabiy shakli. G'azallar matnida ayni ma'noni ifodalash uchun qo'llangan.

Ey Navoiy, aqlu din yag'mo qilur davron mayi,

Chiq ravon bu bazmdin, *filjumla*, hushung borida. (G'S 25)

Lojaram. Bu so'zi ham faqat klassik matnlar tiliga xos. U arabcha so'z bo'lib, lug'atlarda "chorasiz, shubhasiz, noiloj; albatta; shuning uchun" kabi ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanganligi aytiladi [3: 337]. Bu kirish so'z Alisher Navoiy g'azallari matnida kam bo'lsa ham uchraydi. Uning ma'nosi ko'proq hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *shubhasiz* kirish so'zi ma'nosiga mos keladi.

Lojaram, devonavu rasvoyi olam bo'lg'amen,

Chun tushuptur, ey pariypaykar, sening birla ishim. (G'S 417)

Bovujudi. Bu soʻz fors tilidan oʻzlashgan boʻlib, klassik matnlarda *shunday boʻlsa-da, shunday boʻla turib* [3: 122] maʼnolarini ifodalash uchun qoʻllangan.

Zulfi pechu tobigʻa borib kelur shaydo koʻngul,

Bovujudi tiyralik, koʻrgilki koʻp dilgir emas. (GʻS 232)

Mazkur kirish soʻz gʻazallar matnida *-kim/ki* yuklamalaridan biri bilan *-bovujudukim* shaklida, koʻmakchili qurilma – *bovujudu ulki* tarzida ham qoʻllanganligi kuzatiladi:

Bovujudikim adam boʻldum gʻamidin qaygʻurub,

Hech ogʻzining soʻrogʻin laʼlidan topman soʻrub. (GʻS 52)

To oʻqung yomgʻur kebi keldi, koʻzum boʻlmish sadaf,

Bovujudi ulki durdin yuz sari daryosi bor. (GʻS 191)

Bu kirish soʻz Alisher Navoiyning nasriy asarlarida nisbatan koʻproq qoʻllangan.

Goʻyiyo – kirish soʻzi. Bu leksema aslida forsiy soʻz boʻlib, *goʻftan* feʼlining hozirgi zamon shaklidir. U gʻazallar matnida asosan oʻzek tilidagi oʻxshatish maʼnosida keluvchi – *day/dek* affiksi, *misli, kabi* koʻmakchilari ifodalagan maʼnoni ifodalagan. Lekin baʼzi gʻazallar marnida oʻzining lugʻaviy maʼnosiga mos keluvchi, hozirgi oʻzbek tilidagi *aytmoq* feʼli maʼnosi bilan bogʻliq *aytishlaricha* modal soʻzi ifodalagan teng maʼnoda qoʻllangan:

Qilmading ahdingda bir ahdeki qilgʻaysen vafo,

Bevafolar ahdi mundoq *goʻyiyo* erur. (GʻS 136)

Baytni nasriy shaklga transformatsiya qilsak, quyidagicha boʻladi: *Ahdingda vafo qilishga hech bir ahd (qaror) qilmading, aytishlaricha, bevafolarning ahdi shunday: (yaʼni) ularning odatidir.*

Goʻyo soʻzi *-ki* yuklamasi bilan qoʻllanib *goʻyoki* shaklida ham qoʻllanib ham *aytishlaricha* kirish soʻzi maʼnosiga muvofiq qoʻllangan:

Ul maktab arokim oʻqudung noz rumuzin,

Goʻiyoki, vafo ilmin unutmish edi ustod (GʻS 118)

Eski oʻzbek tilida, shu jumladan, Alisher Navoiy gʻazallarida kirish soʻzlarning asosiy qismini mustaqil soʻzlardan koʻchgan kirish soʻzlar tashkil qiladi. Mustaqil soʻzlar jumla tarkibida modal soʻzga aylanishi uchun oʻzining grammatik xususiyatlarini, leksik maʼnosini toʻliq yoki qisman yoʻqotishi zarur boʻladi. Buning natijasida leksik birliklarning semantikasi bilan bogʻliq boʻlmagan, turli pragmatik belgilarga ega boʻlgan semantika yuzaga keladi, yaʼni leksik birliklarda desementizatsiya yuz beradi. Masalan: Agar soʻzlovchi nutqida *der* soʻzini qoʻllasa, uning nutqida keskinlik, qatʼiylik sezilib turadi, shuning uchun uning semantikasida oʻzgarish yuz bermaydi. Ammo u III shaxs koʻplikda *derlar* yoki *debtur* shaklida qoʻllansa, nutq subʼektining subʼektiv nigohi reallashishiga xizmat qilayotganini sezish qiyin emas. Bunda soʻzning leksik, grammatik maʼnolari qisman yoʻqolib nutq vaziyati bilan bogʻliq pragmatik xususiyati yuzaga chiqadi. Endi unga yuklangan mazmun bevosita suhbatdoshga taʼsir qilishga qaratiladi. Bu soʻz hozirgi oʻzbek tilidagi *aytishlaricha* kirish soʻzi ifodalovchi maʼnoga toʻgʻri keladi. Masalan:

Ey Navoiy, garchi meni mehirsiz *der* erdi yor,

Oʻzga boʻldi yoru mehri menda boqiydur hanuz. (GʻS 205)

Gʻunchayi xandonki, *derlar* munfildur ogʻzidin,

Lek kulmak birla istar qilsa daʼi infiol. (GʻS 385)

Derlar. O'zining mustaqil leksik ma'nosidan tashqari, kirish so'z vazifasida qo'llangan va voqea-hodisani yuzaga keltirgan shaxsning noaniq ekanligi haqidagi mazmuniy munosabat anglashiladi. Bu so'z hozirgi o'zbek tilidagi *aytishlaricha* kirish so'zi ifodalovchi ma'noga to'g'ri keladi.

Bu-ki, *derlar* bordurur devor keynida quloq,
Ul fazo davrida ko'z etguncha devor o'lmag'ay (G'S 611).

Alisher Navoiyning lirik asarlarida kirish bo'laklar boshqa gap bo'laklaridan aksariyat hollarda *-ki/kim* yuklamalari bilan ajratiladi.

Kerakkim//kerakki modal so'zi.

Qilsa istig'no *kerakkim*, aylagay, *albat*, rahm,
Gar desang jonim aro dog'i nihonimdin xabar.(G'S 179)

Anglashiladiki, bu gapda *kerakkim* kirish so'z sifatida qo'llangan. U hozirgi o'zbek tilidagi *kerak bo'lsa* kirish so'zining ma'nosiga teng keladi. U gapda sintaktik maqomga ega emas. Agar biz unga gapning konstruv bo'lagi sifatida qaraydigan bo'lsak, gapning kesimi orqali anglasiladigan mazmunga putur yetadi. Qiyoslang: *Istig'no qilsa, albat kerakkim, rahm aylagay// Istig'no qilsa, kerak bo'lsa, albat, rahm aylagay*.

Shukr(ki/kim). Arabcha so'z bo'lib, shukronalik ma'nosini ifodalaydi. U *-kim/ki* yuklamalaridan biri bilan qo'llanib, modal ma'no ifodalaydi,

Ey Navoiy, *shukrkim*, yo'l topti jonon ko'yiga

Hajr shomi zulmatida yo'lni oza-oza ruh. (G'S 106)

G'azallar matnida shukronalikning darajalanishini, ko'pligi yoki chegarasizligi ma'nosining ifodalanganligini kuzatish mumkin. Bu ma'no ko'proq sonlar bilan ifodalangan. Masalan, *yuz marta* shukronalik hissi:

Olamg'a vido' ettim o'shul yuz havasidin,
Yuz *shukrki*, oxir dami iymon bila bordim. (G'S 418)

Olamg'a vido' ettim o'shul yuz havasidin,
Yuz *shukrki*, oxir dami iymon bila bordim. (G'S 418)

Bir ming tuman – 10 000 000 marta shukr, ehtimol cheksiz shukronalik, minnatdorlik ma'nosini ifodalagan:

Jahon bahri emish muhlik, tuman ming *shukrkim*, garchi

Ko'p urdum dastupo, tuttum valek oxir kanor andin. (G'S 498)

Ba'zan olloh so'zi bilan birikib hozirgi o'zbek tilidagi *xudoga shukur, ollohga shukurlar bo'lsin* ma'nosini ifodalaydi.

Shukr lilloh, ey ko'ngulkim, raf o'lub hijron tuni,

Ul quyosh yuzin ko'rarmen tengrining qutluq kuni.(G'S 583)

Hayf. Bu so'z arabcha so'z bo'lib, yozma manbalarda keng qo'llangan. Uning ma'nosi hozirgi o'zbek tilidagi *esiz, afsus, attang* [3: 762] kirish so'zlari ifodalagan ma'noga teng keladi.

Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonlig'da *hayf*,

Qolg'ani sarf o'ldi anduhu pushaymonlig'da *hayf*.(G'S 303)

Bu kirish so'z g'azallar matnida nasriy asarlarda bo'lgani kabi g'azallar matnida ham birikmali tarzda – ko'proq sonlar bilan – qo'llanib, kirish soz ifodalagan ma'noning takroriyligi, uning qat'iylashgan miqdori ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, g'azallar matnida son bilan ham qo'llangan: *yuz qatla hayf*

Tab' ganjiddin maoni xurdasin, *yuz qatla hayf*

Kim, nisor etmakka shohi xurdadone topmadim (G'S 412).

Habbazo. Arabcha soʻz boʻlib, Alisher Navoiy gʻazallari matnida *qanday yaxshi, zoʻr!* [3: 757] Maʼnosini ifodalagan va modal soʻzga koʻchgan.

Habbazo, ishqki kiriyosi fazosidur aning

Barcha bemanzilu maʼvovu makonlargʻa maloz.(GʻS 131)

Yoʻq ersa//yoʻqsa. Bu modal soʻz gʻazallar manida ikki jumla orasida zid munosabatini hosil qiladi. U hozirgi oʻzbek tilidagi *boʻlmasa (yoki boʻlmasa)* soʻzi yoki *aks holda, balki, ehtimol* birikmasi ifodalagan maʼnosiga mos keladi.

Surma bilanmu ul oy koʻzni qora aylamish,

Yoʻqsa Xoʻtan jayoni mushk ichida agʻnamish. (GʻS 264)

Aytkim, tutqil xabar mendin yoʻq ersa, topmagʻung,

Olam ichra istabon nom-u nishonimdin xabar.(GʻS 174)

Zihe – kirish soʻzi. Mazkur soʻz Alisher Navoiy lugʻatida undov sifatida izohlanadi. Fors tilidan oʻzlashgan soʻz boʻlib, tarixiy sheʼriy asarlar tilida keng qoʻllangan. Bu soʻz *yaxshi, joyida, goʻzal, qanday yaxshi* maʼnosini ifodalashi haqida fikr bildirilidadi [3: 253].

Xulosa va takliflar. Kirish soʻzlar sheʼriy sintaksisning tarkibiy elementi boʻlib sintaksisning ortiqchalik tamoyiliga asoslanadi.

Kirish soʻzlar lirik matnning tashkil qilinishida muhim oʻrin tutadi va sheʼriy jumlagi subyektiv munosabat qoʻshadi.

Kirish soʻzlar lirik asar tarkibidagi boshqa til birliklari kabi ritmik, intonatsion va semantik tuzilishida ishtirok qiladi.

Alisher Navoiy lirik asarlarida qoʻllangan kirish soʻzlar ularning ritmik-intonatsion tuzilishi, ekspressivlikni yuzaga chiqarishda muhim oʻrin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Абдурахмонов Х., Шодмонов Е. Хукм ва сўз-гап проблемаси. ТДПШ. Илмий асарлар. – Тошкент, 1972. – В. 47-57.
2. Bobokalonov R. Oʻzbek tilida gap sintaksisi va soʻz-gaplarning system-struktur talqini. –Toshkent. Fan. 2006. 84-b.
3. Навоий асарлари луғати. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. –Тошкент. 1972. –В 337-б.
4. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларида мураккаблашган содда гаплар. –Тошкент, ТДПУ. 1993. 10-б.
5. Камилджанова Р.А. Модальные слова в современном узбекском языке. Автореф.канд.филол.наук. – Ташкент, 1975. – С. 22.